



## Buxoro viloyatida 2019 yilning yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

**Qurilish ishlari hajmi  
– 284,3 mlrd. so'm**

**Yirik pudrat  
tashkilotlari hajmi  
– 63,6 mlrd. so'm**

**Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar hajmi  
– 166,7 mlrd. so'm**

**Norasmiy sektor  
hajmi  
– 54,0 mlrd. so'm**

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 284,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 63,6 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 166,7 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 54,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan



qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 83,2% ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,1% ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 112,5 foizni tashkil etdi.



**2019 yil yanvar-fevral oylarida korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi jamiga nisbatan %da**



O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,4 foizga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 2,5 foizga, norasmiy sektor ulushi 2,9 foizga oshgan.



## Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti

2019 yil yanvar-fevral  
(jamiga nisbatan foizda)

57,0

- yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish

43,0

- kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari

2018 yil yanvar-fevral  
(jamiga nisbatan foizda)

57,3

- yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish

42,7

- kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari


2019 yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarning umumiy hajmidan 57,0 foizi yoki 162,0 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 57,3 foiz yoki 150,7 mlrd. so'm), 43,0 foizi yoki 122,3 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davrida 42,7 foizi yoki

112,5 mlrd. so‘m) - kapital ta‘mirlash, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlariga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob‘yektlarini (maktablar, kollejlilar, sport hamda sog‘liqni saqlash ob‘yektlar va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo‘ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta‘mirlash ishlarida qatnashmoqda.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bino va ishootlarni qurilishiga 153,7 mlrd. so‘m, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 54,1 foizni (o‘tgan yilning mos davrida 140,3 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 53,3 foiz) fuqarolik ob‘yektlarini qurilishiga 52,3 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 18,4 foizni (o‘tgan yilning mos davrida 46,4 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 17,6 foiz) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 78,3 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 27,5 foizni (o‘tgan yilning mos davrida 76,5 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 29,1 foiz) tashkil qildi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

(mlrd.so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni kurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari xajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % ko'paygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmining tarkibi jamiga nisbatan foizda



- Bino va inshootlarning qurilishi
- Fuqarolik ob'yektlarning qurilishi
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




- Bino va inshootlarning qurilishi
- Fuqarolik ob'yektlarning qurilishi
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

### Mulkchilik shakli bo'yicha

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalari tomonidan 269,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 99,2 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 94,8 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 foizga kamaygan.

#### Mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



#### Mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari (mlrd. so'm)

	2019 yil yanvar-fevral	2018 yil yanvar-fevral	O'sish sur'ati, % da
<b>Jami mulkchilik shakli bo'yicha</b>	<b>284,3</b>	<b>263,2</b>	<b>101,9</b>
Davlat	14,9	7,1	200,6
Nodavlat	269,4	256,1	99,2

Davlat mulkchilik shakli tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish foiziga asosan 2019 yil yanvar oyida yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ta'sir qilgan.

### Tuman va shaharlar kesimida qurilish ishlari


(mlrd. so'm)

	2019 yil yanvar- fevral	2018 yil yanvar- fevral	O'sish sur'ati, % da
<b>Jami</b>	<b>284,3</b>	<b>283,3</b>	<b>101,9</b>
Buxoro sh.	56,9	52,1	103,4
Kogon sh.	13,1	9,7	128,4
Olot	19,4	13,1	141,9
Buxoro	20,3	19,8	97,4
Vobkent	8,5	7,2	109,1
G'ijduvon	37,0	31,9	107,5
Kogon	20,1	21,3	92,6
Qorako'l	13,6	10,7	119,7
Qorovulbozor	33,7	44,9	71,6
Peshko'	9,5	8,4	107,7
Romitan	18,7	16,6	106,8
Jondor	22,0	18,0	111,4
Shofirkon	10,9	9,4	109,1

Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori o'rinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari 56,9 mlrd. so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni G'ijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda bajarilgan qurilish ishlari 37,0 mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,5 foizni tashkil qildi.



### 2019 yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da



Qurilish ishlari umumiy hajmida ham 20,0 foiz ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 13,0 foiz ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Tel: 223-81-99,  
0(371) 230-83-10